

NAMANGAN ERTAKLARINING XALQ OG'ZAKI IJODI VA YOZMA  
ADABIYOT BILAN MUNOSABATI

Ahmedova Mohidil Nosirjon qizi

*Namangan davlat universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi bo'lgan Namangan ertaklarining yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodi bilan munosabati tahlil qilingan. Ulardagi o'xshash va farqli jihatlar tahlilga tortilgan. Tegishli xulosalar qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *folklorizm, Namangan xalq ertaklari, yozma adabiyot, xalq og'zaki ijodi*

Bilamizki, folklor o'zining muhim tomonlari bilan ijodkor uchun har tomonlama e'tiborli va qimmatli ekanligi qadimiy va hozirgi zamon adabiyoti tajribalaridan ma'lum. O'zbek yozuvchilari folklorasarlari chuqur o'rganganlari va undan samarali, ijodiy foydalanganlarisari folklor va yozma adabiyotning o'zaro munosabati tobora rivojlanib o'z samarasini bera boshladi.

Xalq og'zaki ijodi yozuvchi va shoirlarning g'oyaviy hamda badiiy jihatdan rivojlanishiga, uslub xilma-xilligini yaratishda katta ijodiy maktab bo'ldi. Yozma adabiyotda o'z ifodasini topgan xalq og'zaki ijodi syujetlari va motivlari yozuvchi mahorati sababli qayta sayqal topib, yaxlit bir asar sifatida yozma adabiyotning ma'naviy gultojiga aylandi.

Qadim davrlarda har bir davr ijodkorlari ertak mavzusidan foydalanib keladilar. Ko'hna sharqda Abulqosim Firdavsiy, Rudakiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Berdaq, Gulxaniy, Muqimiy kabi ulug' allamolar o'z ijodxonalarida xalq og'zaki ijodidan oziqlanib, ajoyib natijaga erishdilar, betakror, o'lmas obrazlar yaratishda folklor xazinasidan qanday ta'lim olish, nimalarni o'rganishning ibratli tajribalarini berdilar.

Yangi o'zbek adabiyotining chinakam xalqchilligi, yuksak badiiyati uchun harakat qilgan, uning yanada boyishi uchun tinimsiz mehnat qilgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, H.H. Niyoziy xalq og'zaki ijodi materiallarini qayta ishlashda ibratbo'larli, xalqchil asarlar yaratdilar. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda singari o'zbek yozuvchilari bu an'analarni o'ziga xos ravishda rivojlantirdilar. Hozirgi ijod maydonida ijod qilayotgan iste'dodlar ham bu an'analarni yanada rivojlantirib kelmoqda. So'z san'ati va xalq og'zaki ijodining o'zaro ta'siri va munosabati xususida so'z borganda, san'atkorning ularga ko'r-ko'rona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, o'z ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi ko'zga tutiladi. Bevosita folklor syujeti asosida yaratilgan adabiy ertaklar (ertak-dostonlar, ertak-she'rlar) va xalq folkloriga tayanib yaratilgan folklorlar motivida asarlar haqida fikr bildirilsa, ulardaxalq ijodidagi o'zaro yaqin va ohangdosh bo'lgan syujetlar tahliliga alohida o'rin beriladi.

Namangan xalq ertaklari ham xalq ertaklari singari badiiy ijod ahllarining ijodiga bevosita ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Namangan ertaklarining ayrimlaridagi syujetlar bevosita yozma adabiyot bilan ohangdosh. Agar mumtoz adabiyot namunalariga qaraydigan bo'lsak,

soʻz mulkining sultoni Navoiy ijodidagi "Xamsa" asarining "Sabbai sayyor" dostoni ma'lum bir qismlari Namangan xalq ertaklaridan " Ahmoq podsho" ertagidagi voqealarga ohangdosh ekanligini kuzatish mumkin. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha:

" Bir podsho bo'lib, u bir kuni rafiqasi va onasi bilan bir ovga sayohatga chiqadi. Ov qilib yurganlarida osmonda bir gala qushga ko'zlari tushadi. Podsho xotiniga qarab:

- Shu g'ozlarning oldingisini urib tushuraymi, ketidagisini? – debdi.

- Agar mergan bo'lsangiz oxirgidagi g'ozni chap ko'zidan urib tushuring, - debdi xotini

Podsho qo'lidagi yoyni olib poylab turib, xotini aytgandek g'ozni chap ko'zidan otib tushuradi.

Podsho xotiniga:

- Merganligimga qanday baho berasan? - debdi.

- Bu bir hunar-da, - debdi rafiqasi.

Bundan g'azablangan podsho xotinini cho'lga olib borib tashlabdi. Bir o'tinchi cho'l qizni qutqarib qolib uni o'ziga qiz qilib oladi. Shunday qilib ular ahil-inoq yashay boshlashadi. Qizning donoligi sabab chol tezda boyib ketadi. Kunlardan bir kun podsho ovga chiqadi va ov ortidan quvib cholning dargohiga yetib kelib qoladi. U yerda mehmon bo'ladi. Keying safar kelganda esa choldan mol-mulkini tortib olish niyatiga tushib qoladi. Qiz buni darrov sezib, cholga aytadi. Podsho mehmonda anorni kosasiga siqsa kosa to'lmaydi buning sababini esa choldan so'raydi.

Chol unga bu safar yaxshi niyatda kelmagani sababli shunday bo'lganini aytadi. Podsho bunday javobga qoyil qolib unga tasannolar aytadi. Shunda kuy ovozi taralib o'n yetti- o'n sakkiz yasharli qiz ohista hiron aylab toshlarni ko'tarib chiqadi. Uni toshni osongina ko'targanini ko'rgan podsho toshlarni yengil bo'lsa kerak deb o'ylaydi. Yonidagi qirq yigitiga toshlarni ko'tarishni buyurib kim ko'tarsa, davlatini yarmini berishni va'da qiladi. Yigitlardan birortasi toshlarni ko'tara olmaydi. Qiz yana qayta chiqib toshlarni ko'tarib o'ynab ichkariga kirib ketadi. Shoh unga qoyil qolsa ichkaridan:

- Buyam bir hunar-da! , - degan ovoz eshitiladi. Podsho bu ovozdan rafiqasini tanib undan kechirim so'rab uyiga olib ketadi va murod maqsadlariga yetishadi.<sup>64</sup>

Alisher Navoiy asaridagi qahramon ya'ni Bahrom ham aynan Diloromning boshiga shunday kunni soladi. Demak, buyuk adiblar ham bevosita asarlar yaratishda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanishgan.

Bundan tashqari boshqa ijodkorlar ijodida ham Namangan xalq ertaklarining ma'lum bir o'xshashliklarini ko'rish mumkin. Yaxshilikka yaxshilik bilan javob beruvchi afsonaviy qush Semurg' haqidagi sharq ertaklari boshqa folklor asarlarida uchragani kabi Namangan xalq ertaklarida ham aynan shu xususiyat bilan uchraydi va bosh qahramonning orzu-umidlariga yetishishiga, sinovlardan o'tib olishiga imkon beradi. Semurg' haqidagi bunday ertaklardan biri Hamid Olimjon ijodida uchraydi. " Semurg', Parizod va Bunyod" nomli ertakda ham Semurg' bosh qahramonning sinovli, mashaqatli yo'lida hamisha yordam beradi va uning maqsadiga erishishiga ko'mak beradi.

<sup>64</sup>Gulpari. Namangan ertaklari. (Ertaklarni yozib olib nashrga tayyorlovchi: G'oziboyev T.).- Toshkent: Badiiy adabiyot, 1969.-275b

Shoir va ijodkorlar ertak-dostonlarni yaratishda xalq ertaklari mazmunini she'riy yo'l bilan qayta hikoya qilish bilan chegaralanib qolganlari yo'q. Ular o'z ijod mahsulotlarini badiiyatini yuksaltirishda shuningdek, fikrlarni dalillashda xalq og'zaki namunalarining eng zarur voqea va syujetlarini, tasvirlash usullarini alohida saralab, ajratib oldilar va ulardan oqilonalik, mohirlik bilan foydalandilar.

Namangan xalq ertaklari ham ,albatta, bu o'rinda o'z ta'sirini va badiiyati orqali yangi ertak-dostonlar yaratilishi uchun ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazdi. Shu orqali yozuvchilar ertaklardagi eng ko'p tasvir usullarini sayqallab, boyitib uni qayta adabiyot olamiga olib kirdilar.

Shuni ham unutmaslik lozimki, har bir yozuvchining folklor asarlaridan oziqlanish yo'llari turli xil va o'ziga xos bo'ldi. Agar Hamid Olimjon adabiy ertaklarida xalq og'zaki ijodining shakli, qahramonlari, mubolag'ali o'rinlarni tasvirlash, obrazlar talqinini saqlashga moyillik sezilsa, Oybek asarlarida xalq og'zaki ijodi namunalari qayta sayqallanadiki ,natijada, ularda xalq og'zaki ijodning ruhiyatigina saqlanib qolinadi.

Bundan tashqari, Namangan xalq ertaklarining "Chol va kampir" ertagi xuddi rus xalq ertaklari orasida ma'lum va mashxur bo'lgan " Bo'g'irsoq" ertagi syujeti bilan hamohang. Ushbu Namangan xalq ertagining qisqacha mazmuniga ko'ra :

" Chol va kampir yashar ekan, bir kuni chol kampiriga qorni ochiqqani va unga nimadir yegulik pishirib berishini so'raydi. Kampir esa uyda hech narsa qolmaganini aytadi, ammo surpalarni qoqishtirib xamir qorib ko'moch yasaydi. Ko'mochni tandirga solib qo'yadi pishay deganda ko'moch cholu-kampirdan qochib ketadi. Ko'moch yo'lda bo'riga, ayiqqa, quyonga va hatto dehqonga duch keladi, ammo ularni barisidan qochib ketadi ( xuddi bo'g'irsoq singgari). Oxir – oqibatda tulkiga duch keladi va tulki ayyorona so'zlari bilan ko'mochni aldab yeb qo'yadi".<sup>65</sup>

Shuningdek, Namangan xalq ertaklaridagi ba'zi bir syujetlarni biz jahon adiblari yaratgan ertaklar bilan ham hamohang ekanligini kuzatishimiz mumkin. Jahon adabiyotidagi " Botir tikuvchi" ertagidagi syujetlar Namangan xalq ertaklari orasidagi "Aqlli chol" ertagiga o'xshab ketadi. Ya'ni ikki ertak qahramonlari ham o'zining aql-u zakovatlari, tadbirkorligi sababli ham hayotidagi mushkulotni yengadilar. Gansyo'lda ketayotganda kerak bo'lib qolar deb tuxum, toshbaqa, otning dumini olib oladi. Namangan xalq ertagi qahramoni ham aynan yo'ldan shu narsalarni kerak bo'lib qolar deb olib oladi. Ular har ikkisi yo'lda devga duch keladilar. Dev agar u bilan bo'lgan bellashuvda devni yengsa, uni yemasligini aytadi. Bizning qahramonlarimiz hamma shartlarni o'zlari aytishlarini aytib bu sinovga rozi bo'lishadi.

Birinchi shart : bir tepib yerning qatig'ini chiqarish, ikkinchisi : bitlarini ko'rsatish, uchinchisi esa bir tola sochlarini ko'rsatish edi.

Personajlar ,avvalo, yerga tuxumni ko'mib qo'yadilar va aynan ana shu tuxum turgan yerni tepadilar, natijada tuxum yorilib ichidagilar yer ustiga chiqib qoladi. Dev qancha urinib yerni tepmasin, bunday hodisa bo'lmaydi. So'ngra ular ikkinchi shartga o'tadilar, ya'ni bir dona sochlaridagi bitni olib ko'rsatadilar. Qahramonlarimiz Gans va chol yo'lda topib olgan toshbaqalarini ko'rsatadilar va bu shartda ham devni yengadilar. Uchinchi

<sup>65</sup>Namangan xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari (To'plovchilar va nashrga tayyorlovchilar: G'oziboyev T., obirov A., so'zboshi muallifi Sobirov A.),-Namangan, 1993.

shartda esa soch tolalarini ko'rsatadilar, ya'ni yo'lda topib olgan otning dumini va bu shartda ham ular g'olib chiqadilar va dev ikki ertak qahramonini ham qo'yib yuboradi.

Ko'rinib turibdiki, Namangan xalq ertaklari ham bevosita yozma adabiyot namunalari bilan ohangdosh. O'z navbatida, ular asosida yozma adabiyotda ma'lum bir syujet ohanglari yaratilganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, Namangan xalq ertaklarini o'rganishda uni xalq folkloridagi dostonlar bilan bog'lab o'rganish kerakligini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Hozirda ularni ma'lum bir o'xshash xususiyatlari haqida biroz fikr yuritimiz. Ma'lumki, Namangan qadimdan oq doston aytuvchilar, ertakgo'ylar mamlakati ekan, unda o'z navbatida xalq folklorida hamohang ijod mahsullari mavjud bo'ladi, albatta. Namangan xalq ertaklarini ba'zi bir maktab darsliklarida berilgan ertak va dostonlardan so'ng bolani yanada qiziqtirish uning ruhiy olamini boyitish uchun bog'lab o'rgatish yoki o'qish uchun tavsiya etish mumkin. Birgina "G'afolatjon" deb nomlangan Namangan xalq ertagida o'zbek xalq ertaklaridagi mavjud voqealarni uchratish mumkin. Masalan, Misr malikasining sandiqda daryoga solinishi, sandiqda uch oy daryoda oqishi o'zbek xalq ertaklaridan "Tohir va Zuhra" ertagidagi qahramon Tohirning qismatini yodga solsa, boshqa bir voqealar ya'ni malikani podsho sevib qolishi, ammo malika uni xohlamasligi, agar iloj qolmasa o'zini daryoga otib o'linga hukm qilishi Hamid Olimjon qalamiga mansub "Oyguil bilan Baxtiyor" ertak-dostoni qahramonining taqdirini yodga soladi. Yoki ertakdagi boshqa qahramon Qotilshoxning malikaga sevgisini ayta olmay eski o'g'ilxonaga kirib ko'kragini zaxga berib yotishi, otasi esa bundan xavotirga tushishi o'zbek xalq dostoni qahramoni Alpomishning holatini yodga soladi. Yo "Rasuljon" nomli Namangan xalq ertagi bosh qahramoni, podshoning yakkayu-yolg'iz farzandi Rasuljon o'z yorini oynayi jahon orqali ko'rib qolib hushidan ketishi esa "Farhod va Shirin" dostoni voqealariga o'xshashligini uchratish mumkin.

Shunday qilib, Namangan xalq ertaklarining xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot bilan qorishib, uyg'unlashib ketgan oddiy syujetlar zaminida xalqimizning asrlar bo'yi orzu qilgan eng ezgu niyatlari amalga oshganini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Hozirgi kun adabiyotida, badiiy tasvirda falsafiylik, ijodkorlar insonning o'zligini anglash, o'z ko'ngil olamiga yaqinlashish jarayoni bor murakkabligi, ruhiy holatlari ila tasvirlashda bahs, o'y, xayol, ichki monolog shakllari keng o'rin egallayotgan va bu jihatlarda jiddiy izlanish, o'rganishlar olib borilayotgan hozirgi davrda xalq ertaklarining yozma adabiyotdagi o'rni ayniqsa, ortib bormoqda. Yozuvchi xalq ertaklaridagi falsafiy, mushohadali fikrlarni to'la saqlaydi, ba'zan o'y-fikrlari bilan to'ldirib, sayqal beradi, yoki bugungi kun voqealari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan shoh asarlar yaratadi. Shu tarzda ertaklardagi qadimiy mifologik mazmun, uning inson va hayot mumammolari bilan hamohang tomonlari ostida tashkil topgan voqealar badiiy asarlar ichiga kirib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalq hayotida ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, Namangan ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyillari chuqurlasha bordi. Har bir ertaklarda o'ziga xos bo'lgan majoziy ma'no asosiy xususiyatni kasb eta boshladi. Shu tariqa Namangan xalq ertaklari ham ijtimoiy estetik hodisa sifatida xalq og'zaki ijodi epik turning ajralmas qismi sifatida mustahkam qaror topdi. Namangan xalq og'zaki ijodi an'alarini adabiyot dasturi bo'yicha o'rganiladigan xalq ertaklari va

qo'shiqlari hamda xalq dostonlariga bog'lab o'rganilishi kerak. Namangan xalq ertaklari o'z navbatida Namangan xalqining asrlar davomidagi urf-odat, an'analarini, dunyoqarashi va mentalitetini ko'rsatib beradi. Namangan adabiy muhitining shakllarinishida, yozma adabiyotning rivojida munosib hissa qo'shdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gulpari.Namangan ertaklari. (Ertaklarni yozib olib nashrga tayyorlovchi: G'oziboyev T.)- Toshkent:Badiiy adabiyot,1969.-275b
2. Namangan xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari (To'plovchilar va nashrga tayyorlovchilar: G'oziboyev T., obirov A., so'zboshi muallifi Sobirov A.),-Namangan, 1993